


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 27 548 tani tashkil etadi, shundan 22 022 tasi yoki 79,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan 105,7 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 106,8 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	27 548	22 198	22 022
2025	26 074	20 810	20 626
2024	29 105	23 876	23 755
2023	32 476	27 379	27 230
2022	42 143	36 806	36 641

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Andijon shahrida – 26,7 foiz, Andijon – 8,4 foiz, Asaka – 7,9 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz va Baliqchi – 5,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidagi salmoqli ulushi Andijon tumanida – 85,0 foiz va 84,7 foiz, Andijon shahrida – 84,5 foiz va 83,4 foiz, Bo'ston – 80,4 va 79,8 foiz, Ulug'nor – 80,4 foiz va 79,6 foiz, Oltinko'l – 80,3 foiz va 79,9 foiz va Marxamat – 80,2 foiz 79,5 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Oltinko'l tumani	1 479	1 187	1 181
Andijon tumani	2 302	1 956	1 950
Baliqchi tumani	1 595	1 270	1 263
Bo'ston tumani	1 030	828	822
Buloqboshi tumani	824	623	617
Jalolquduq tumani	1 155	851	850
Izboskan tumani	1 447	1 136	1 133
Ulug'nor tumani	851	684	677
Qo'rg'on tepa tumani	1 351	1 012	1 008
Asaka tumani	2 166	1 718	1 705
Marxamat tumani	1 267	1 016	1 007
Shahrixon tumani	1 910	1 505	1 497
Paxtaobod tumani	1 143	857	850
Xo'jaobod tumani	1 168	934	923
Andijon sh.	7 358	6 217	6 138
Xonobod sh.	502	404	401

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026-yil 1-aprel holatiga 29,8 foizni (36,9 foiz va 37,1 foiz) tashkil etdi.



Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 17,1% (21,1% va 21,0%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,3% (7,7% va 7,7%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 313	1 276	1 267
Sanoat	4 705	4 683	4 626
Qurilish	1 737	1 716	1 696
Savdo	8 200	8 197	8 169
Tashish va saqlash	757	752	739
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 360	1 359	1 352
Axborot va aloqa	477	469	468
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 254	970	966
Boshqa turlar	7 745	2 776	2 739

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 22 198 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 19 371 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	19 371	87,2
Xususiy korxonalar	1 493	6,7
Oilaviy korxonalar	1 058	4,8
Aksiyadorlik jamiyati	35	0,2
Boshqalar	241	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, 2026-yilning 1-aprel holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 453 ta korxonalardan 133 tasi qo'shma korxonalar va 320 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 126 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 65 tadan 115 taga, (o'sish 50 taga), sanoat sohasida 156 tadan 191 taga (o'sish 35 taga) va qurilish sohasida 25 tadan 42 taga (o'sish 17 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	453	133	320
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	9	12
Sanoat	191	77	114
Qurilish	42	7	35
Savdo	115	20	95
Tashish va saqlash	12	4	8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	1	14
Axborot va aloqa	13	1	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	2	5
Boshqa turlar	37	12	25

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 174 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,4 foizini tashkil etdi. Shuningdek, viloyatimiz iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (14,8%), Turkiya (14,3%), Qirg'iz Respublikasi (11,3%) va Janubiy Koreya (6,8%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami:	453	133	320
Xitoy	174	44	130
Rossiya	67	27	40
Turkiya	65	16	49
Qirg'iz Respublikasi	51	15	36
Janubiy Koreya	31	14	17
Singapur	10	2	8
Tojikiston	9	3	6
BAA	8	3	5
Hindiston	7	2	5
Belorusiya	6	3	3
Qozog'iston	4	2	2
AQSH	3	1	2
Ozarbayjon	2	-	2
Boshqalar	16	1	15

IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama‘lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo‘yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo‘lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma‘lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma‘lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta‘minlaydi. Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma‘lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama‘lumot uchun havolalar:

[Metama‘lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas‘uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo‘nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas‘ul: Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo‘limi	Ijrochi: Z. Sidikov 74 228-29-70 (6060)	Maznil: 170100, Andijon sh., Milliy tiklanish ko‘chasi, 36 A
--	--	---